"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

x a l q a r o   i l m i y   j u r n a l i

*Society, Gender and Family in Central Asia*
*international academic peer reviewed journal*

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии*
*международный научный рецензируемый журнал*

**2024/1 (10)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

**ISSN 2049-3630** **TOSHKENT**

**TAHRIR HAY'ATI RAISI:**
**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** *(Bosh muharrir) – pedagogika fanlari doktori, professor.*

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**
**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna –** *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
**SAIDOVA Galina Karimovna –** *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich –** *psixologiya fanlari doktori, professor.*
**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** *(Bosh muharrir o'rinbosari) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
**BEKMURADOV Adham Sharipovich –** *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
**MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna –** *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna –** *pedagogika fanlari doktori, professor.*
**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna –** *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
**SAIDOV Akmal Xolmatovich –** *yuridik fanlari doktori, professor.*
**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna –** *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna –** *tibbiyot fanlari nomzodi.*
**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich –** *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
**ZIYAYEV Azamad Xamidovich** *– tarix fanlari doktori, professor.*
**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** *– psixologiya fanlari doktori.*
**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** *– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**
**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** *(Главный редактор) – доктор педагогических наук, профессор.*

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**
**Нарбаева Танзила Камаловна –** *доктор социологических наук, профессор.*
**Саидова Галина Каримовна –** *доктор экономических наук, профессор.*
**Шоумаров Гайрат Бахрамович –** *доктор психологических наук, профессор.*
**Абдураманов Хамид Худайбергенович** *(Заместитель главного редактора) – доктор экономических наук, профессор.*
**Бекмурадов Адхам Шарипович –** *доктор экономических наук, профессор.*
**Маъруфова Гулнора Махмудовна –** *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.*
**Мусурманова Айниса Мусурмановна –** *доктор педагогических наук, профессор.*
**Рахимова Нигина Хайруллаевна –** *доктор экономических наук, профессор.*
**Саидов Акмал Холматович –** *доктор юридических наук, профессор.*
**Якубжанова Дилобар Батировна –** *доктор педагогических наук, доцент.*
**Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна –** *кандидат медицинских наук.*
**Умирзаков Баходир Хамидович –** *доктор экономических наук, профессор.*
**Зияев Азамад Хамидович –** *доктор исторических наук, профессор.*
**Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли** *– доктор психологических наук.*
**Туракулов Улугбек Холбутаевич** *– доктор философии педагогических наук (PhD)*

**THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**
**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**
*(Editor-in-Chief) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

**MEMBERS OF THE EDITING BOARD:**
**Narbayeva Tanzila Kamalovna –** *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
**Saidova Galina Karimovna –** *Doctor of Economic sciences, Professor.*
**Shoumarov Ghayrat Bakhramovich –** *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** *(Deputy Editor-in-Chief) – Doctor of Economic sciences, Professor.*
**Bekmuradov Adkham Sharipovich –** *Doctor of Economic sciences, Professor.*
**Marufova Gulnora Makhmudovna –** *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
**Musurmanova Aynisa Musurmanovna –** *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
**Rakhimova Nigina Khayrullayevna –** *Doctor of Economic sciences, Professor.*
**Saidov Akmal Kholmatovich –** *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
**Yakubjanova Dilobar Batirovna –** *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna –** *Candidate of Medical sciences.*
**Umirzakov Bakhodir Khamidovich –** *Doctor of Economic sciences, Professor.*
**Ziyayev Azamad Khamidovich –** *Doctor of Historical sciences, Professor.*
**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** *– Doctor of Psychological Sciences.*
**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** *– Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

**XALQARO TAHRIR HAY'ATI:**

**Doktor Rashmini Koparkar,**
*Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti Xalqaro tadqiqotlar maktabi, Javoharlal Neru universiteti, Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**
*Chelyabinsk davlat madaniyat instituti, pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**
*Texnologiya fakulteti boshlig'i, London biznes va moliya maktabi, Singapur*

**МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Доктор Рашмини Копаркар,**
*Доцент Центра исследований России и Центральной Азии, Школа международных исследований, Университет Джавахарлала Неру, Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина Иосифовна,**
*Челябинский государственный институт культуры, доктор педагогических наук, профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**
*Руководитель Технологического факультета Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур*

**INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:**

**Dr. Rashmini Koparkar**
*Assistant Professor Centre for Russian and Central Asian Studies School of International Studies Jawaharlal Nehru University New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**
*Chelyabinsk State Institute of Culture Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**
*Head, School of Technology London School of Business and Finance, Singapore*

### MENEJMENT

**Abdullajanova D.S.** Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari ....4

### SOTSIOLOGIYA

**Saipova M.** Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar ....10

**Xonturayev B.** Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari ....16

**Йулдошева У.** Гендерные аспекты развития социального предпринимательсва в Узбекистане ....25

**Hashimova G.I.** Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari ....32

### MAHALLA VA HAYOT

**Isamutdinov R.R.** Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati ....37

### OILA VA JAMIYAT

**Abdiraimova Sh.A.** Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari ....44

**Rahimova M.** Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi ....49

**Dovranova O.D.** Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish ....53

**Mahkamov U.A.** So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida ....58

### PSIXOLOGIYA

**Рахимова И.И., Каримова Г.О.** Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха ....64

**Абидова З.А.** Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности ....69

**Ishonkulova N.I.** Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari ....75

**Raxmonova Z.N.** Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari ....80

### PEDAGOGIKA

**Ortikov U.X.** The socio-educational model in second language acquisition ....86

**Yulchiyeva D.X.** Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat ....92

**Аблакулов Ш.Д.** Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов ....98

**Mirhamidova M.** Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari ....104

**Safoyeva R.J.** Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari ....109

**Yakubov O.T.** Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari ....114

### TARIX

**Sharipova N.A.** XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi ....118



**Safoyeva Ra'no Jalolovna,**
*"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti,*
*tayanch doktoranti*

# NOTO'LIQ OILA FARZANDLARINING IJTIMOIYLASHUVI XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada noto'liq oila tushunchasi atroflicha o'rganilgan. Xorijiy olimlarning noto'liq oilalar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari tahlil qilingan.*
**Tayanch so'zlar:** *noto'liq oila, yolg'iz ota, yolg'iz ona, farzand, oila.*

**Аннотация.** *В данной статье подробно рассматривается понятие неполной семьи. Проанализированы исследования, проведенные зарубежными учеными о неполных семьях.*
**Ключевые слова:** *неполная семья, отец-одиночка, мать-одиночка, ребенок, семья.*

**Annotation.** *This article examines the concept of single-parent family in detail. Researches conducted by foreign scientists on single-parent families were analyzed.*
**Keyords:** *incomplete family, single father, single mother, child, family.*

**Kirish.** Bugungi kunda taraqqiyotga intilayotgan har qanday davlatning asosiy maqsadi aholi farovonligini oshirishdan iborat. Ayni paytda bizning mamlakatimiz hukumati tomonidan jamiyatning har bir a'zosining hayotini yaxshilash uchun barcha zarur choralar ko'rilmoqda. Biroq o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashdek murakkab vazifalarni oila to'liq bo'lgandagina muvaffaqiyatli hal qila oladi. Oila tarbiyasi bolalarda insoniy, axloqiy tamoyillarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Barchaga ma'lumki, inson kamolotining dastlabki asoslari oilada yaratiladi. Aynan shu muqaddas maskanda farzandlarning aqliy va jismoniy qobiliyatlari, axloqiy va estetik fazilatlari shakllanadi. Jamiyat va davlatning siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotida jadallik bilan sodir bo'layotgan hozirgi zamonaviy sharoitda oilaviy tarbiya tizimi ham sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Oila hali chuqur ilmiy tahlil asosida emas, balki faktlar darajasida shuni alohida ta'kidlash kerakki, an'anaviy ma'nodagi oilaning vayron bo'lishi tobora kuchayib, uning ichidagi aloqalar yanada zaiflashmoqda.

**Maqsad va uni asoslash.** An'anaviy oila roli haqidagi qarashlarni o'zgartirish va uning tabiiy maqsadini tiklash vaqt hamda muayyan shart-sharoitlarni talab qiladi. Oila inson ongida eng katta axloqiy qadriyatga aylanishi uchun ishni, eng avvalo, unda tarbiyalanayotgan farzand tarbiyasidan boshlash kerak, chunki bola tarbiyasida oila muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jamiyat rivojida zurriyot tarbiyasi va uning kamoloti katta ta'sirga ega. Bunda shaxsning jamiyatda tutgan o'rni va funksional vazifalarini to'g'ri tartibga solishda ota-onaning o'rni isbot talab qilmaydigan aksioma kabidir. Zero, ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz va aholi turmushining yomonlashuvi sharoitida

to'liq bo'lmagan oilada bola shaxsini shakllantirish muammolarini o'rganish, tadqiq qilish va ularni hal etish masalasi dunyo hamjamiyatining hayotiy zaruratiga aylandi.

Respublikamizda oila institutini mustahkamlashda ajrashishlar va noto'liq oilalar sonini kamaytirish, yoshlar va ayollar orasidagi jinoyatchilikning oldini olish, suitsidal xulq-atvorning psixologik-pedagogik profilaktik tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda davlatimiz tomonidan oilalardagi yoshlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish borasida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, bu borada yangi tizim yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-fevraldagi "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4185-son hamda 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5215-son[2] qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 12-avgustdagi "Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 263-son qarorlari shular jumlasidandir.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Bugungi kundagi globallashuv jarayonida jamiyatdagi o'zgarishlar, turli ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va iqtisodiy tanglikning o'sib borishi bilan birga, jamiyatning moddiy va ijtimoiy qutblanishi hamda iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlar, millatlararo ziddiyatlar oilaga o'z tasirini ko'rsatmoqda. Aynan bu kabi salbiy jarayonlar oilalardagi ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada oilalar o'zining muhim vazifalarini amalga oshirish imkoniyati kamayadi, oilaning barqarorligi izdan chiqadi. Oilalarning buzilishiga olib keladigan quyidagi salbiy oqibatlarni misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin:

1) oilada erkak kishining ayol kishiga qaram bo'lishi;

2) erkaklarga nisbatan ayollar bandligining yuqori darajada ekanligi;

3) uchinchi shaxs aralashuvi natijasida oilalardagi ziddiyatli vaziyatlar vujudga kelishi oqibatida ajrashishlar sonining ortib borishi.

Oilalardagi ajrashishlar tufayli jamiyatda farzandlarini yolg'iz tarbiyalaydigan onalar va otalardan iborat oilalar vujudga kelmoqda. Nemis oilmlarining noto'liq oilalarga shunday ta'rifi mavjud: "unvollstaendige Familie" – "yolg'iz ota yoki onadan iborat oila". Ingliz adabiyotida shunday termin asosida ta'riflanadi: "single-parent family" – "faqat ota yoki onadan iborat oila". Bunday oilalarni ingliz tadqiqotchilari shunday tipdagi oilalarga ajratadi:

1) ajrashgan oilalar;

2) bevalar;

3) nikohsiz farzandlari bor oilalar.

Chet el adabiyotlarida farzandlarni yolg'iz tarbiyalayotgan ota yoki onadan iborat oilani "yolg'iz ota yoki onadan tashkil topgan oila" deb ta'riflanmoqda. Yevropada mahalliy ilmiy adabiyotida sotsiologlar "noto'liq oila" terminidan foydalanishadi. A.G. Volkovaning fikricha, noto'liq oila "to'liqsiz nuklear oila"dir[3]. Odatda, noto'liq oilalar ota yoki onaning biri bilan yashayotgan bir farzandli yoki ko'p farzandli noto'liq oila sanaladi. Noto'liq oila ham bir oila turi hisoblanadi. Bunday

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги "Жамиятда ижтимоий- маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5938-сон Фармони. https://lex.uz/docs/4740345

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 августдаги "Етим болалар ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни тарбиялашнинг тубдан янгиланган тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-5215-сон қарори // https://lex.uz/docs/5570968

[3] Нафикова Г.З. Понятие неполной семьи и ее типы // Вестник Башкирского университета. 2009. Т. 14. №1. – Р. 241-243. https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-nepolnoy-semi-i-ee-tipy/viewer


2024/1 (10) ISSN 2049-3630

oilalarda farzand ona yoki ota bilan o‘sib-ulg‘ayadi. V.N. Arxangelskiyning tahlil qilishicha, “Noto‘liq oila – bu farzandlar ota yoki onaning biri bilan yolg‘iz voyaga yetayotgan yoki ota-onasidan judo bo‘lgan bolalar”dir[4]. Yoki kengroq ma’noda “noto‘liq oila” farzandini yolg‘iz tarbiyalayotgan ona yoki otadan iborat oila deya ta’kidlab o‘tgan. Noto‘liq oilalarni har xil soha olimlari tadqiqot ishida o‘rgangan, bulardan: pedagoglar, psixologlar, huquqshunoslar, demogroflar. Pedagogikada “noto‘liq oila” nomaqbul tarbiya omili sifatida qaraladi. Psixologiyada “Noto‘liq oila” nosog‘lom turmush tarziga ega, ya’ni buzilish arafasidagi ajrashish yoqasiga kelgan yoki to‘liq bo‘lmagan oila, sog‘lom muhitli oilaning buzilishi deya ta’riflanadi. A.B.Sinelnikov fikricha, noto‘liq oila farzandlari qanchaligida emas, aksincha, ularning ota yoki onasiz o‘sib-ulg‘ayishi vaqtida balog‘at yoshiga yetguncha qancha qiyinchilik va psixologik travma olganligidadir deydi. Huquq sohasida “yolg‘iz ona” atamasi 1944-yil SSSR davrida Oliy Kengash Prezidiumining Farmonida ushbu atama qo‘llangan. Ushbu atamaning huquqiy jihatdan paydo bo‘lishidan maqsad farzandlarini yolg‘iz tarbiyalayotgan yolg‘iz onalarga moddiy jihatdan qonuniy yordam berish bo‘lgan. Huquqshunoslikda noto‘liq oila farzandlarining xulq-atvor normalaridan og‘ishi balog‘at yoshiga yetar-yetmas jinoyatga qo‘l urishi, ko‘proq kriminogen holatlar voyaga yetmaganlar orasida noto‘liq oila farzandlari tomonidan amalga oshirilgani o‘rganilgan.

Ota va farzanddan iborat oilaning ta’rifi: onasi hayot yoki vafot etgan, ajrashgan oilalarning farzandlari otasi bilan yashaydi.

Ona va farzanddan iborat oilaning ta’rifi: bunday oilalar otasi vafot etgan, ajrashgan, (nikohsiz tug‘ilgan) farzandlar onasi bilan yashaydi.

“Noto‘liq oila”ning turlari:

1) bevalar oilasi, ya’ni otasi yoki onasi vafaot etgan;

2) nikohsiz tug‘ilgan farzandlar – otasi qonuniy tan olmagan va farzandning sharifi onasi tomonidan qo‘yilgan;

3) nikohsiz tug‘ilgan farzandlarning otasi o‘z xohishi bilan huquqiy jihatdan tan olgan;

4) ajrashgan oilalar.

[4] Нафикова Г.З. Понятие неполной семьи и ее типы // Вестник Башкирского университета. 2009. Т. 14. №1. – P. 241-243. https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-nepolnoy-semi-i-ee-tipy/viewer

“Noto‘liq oilalar” atamasi birinchi marta 1981-yilda Fransiya Milliy statistika va iqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan qo‘llanilgan. To‘liqsiz oilalar sonining ortib borishi va ulardagi bolalarning ota-onasiz o‘sishi nafaqat O‘zbekistonda, balki barcha taraqqiy etgan va rivojlanayotgan davlatlarda o‘z ifodasini topgan katta ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, psixologik hamda ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Noto‘liq oila – ota-onalardan biri yo‘q bo‘lgan oila. Bundan tashqari yana bir oila turi bo‘lib, u funksional jihatdan noto‘liq oila deb ataladi, bunda ota-onalar o‘zlarining professional bandliklari yoki uzoq muddatda oilada bo‘la olmasliklari sababli oila a’zolariga nihoyatda kam vaqt ajratadilar. Bu oila turida ota-onalarning ajrashib ketishidan tashqari biror obyektiv va subyektiv sabablar natijasida, ya’ni bemorlik, favqulodda hodisalar, o‘lim, mehnat migratsiyasi tufayli er yoki xotinning o‘zga yurtlarda qolib ketish holatlari ham uchraydi[5].

Muammoni o‘rganishda noto‘liq oilalar va ularning farzandlari ijimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, psixologik hamda ijtimoiy-pedagogik jihatdan turlicha tadqiq qilinadi. Bunda noto‘liq va onalik oilalarini S.I. Golod va A.A. Kletsin tomonidan taklif qilingan haqiqiy nikohga asoslanmagan oilalar turiga ajratish boshqa mutaxassislar tomonidan ham tanqid qilinadi. Shunday qilib, N.A. Xartman, N.F. Ivanova, V.N. Kozlov, B.S. Pavlov va A.I. Tatarkin boshchiligidagi muallif olimlar jamoasi zamonaviy oila va nikoh munosabatlarining murakkabligini aks ettirmasa, bunday bo‘linishni yetarlicha to‘liq emas deb hisoblaydi:

“Birinchidan, bu oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos turi sifatida “noto‘liq oila” hodisasini keltirib chiqaradigan sabablarni taqsimlashning to‘liq emasligi bilan bog‘liq. Bu qonun bilan belgilangan maqomga ega bo‘lgan noto‘liq oilalardan tashqari bunday maqomga ega bo‘lmagan to‘liq ota-ona oilalarining sezilarli soni mavjudligini hisobga olmaydi.

Noto‘liq oila tushunchasining mazmunini aniqlashning yana bir sababi – bolalarning moddiy xavfsizligi fakti. Finlyandiya sotsiologlari noto‘liq bo‘lgan oilalarni o‘rganishga alohida ahamiyat

[5] Акрамова Ф.А., Билолова З.Б., Жовлиев И.С. Оила энциклопедияси. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – С. 108. https://e-library.sammu.uz/uz/view-pdf/ar-cCYtX2lhQFzPts7phjniwsAMIHmGEd_R3GI8XOyOslz-73GWllJYhyUArXwCk

berishgan. A.M. Demidov[6] Finlyandiya ijtimoiy amaliyotida koʻrib chiqilayotgan oila turini belgilash uchun qabul qilingan terminologiyani tahlil qilib, fin mutaxassislarining faqat oilalarga ijtimoiy yordamning maqsad va vazifalariga javob beradigan amaliy yondashuvni qayd etadi. U shunday yozadi: “Bizning fanimiz va amaliyotimizda ota-onalardan biri boʻlmagan oilaviy guruhni aniqlash uchun qabul qilingan “notoʻliq oila” atamasi fin sotsiologlari tomonidan ishlatilmaydi va buning oʻrniga “vksinhuoltaja” tushunchasi qoʻllanadi. Bu soʻzma-soʻz tarjima qilinganda “yolgʻiz gʻamxoʻrlik qilish” yoki “oilaga yolgʻiz gʻamxoʻrlik qilish” degan maʼnoni anglatadi[7]. A.M. Demidovning fikricha, Finlyandiya tadqiqotchilari uchun yolgʻiz ona yoki ota – bu, avvalambor, yolgʻiz bolaga gʻamxoʻrlik qilayotgan katta odamlar hisoblanadi, undan keyin ularni 3 tipga ajratsak maʼqul boʻladi, yaʼni ajrashgan, beva va boshqalar.

Z.Shaumarovaning ilmiy-tadqiqot ishlari notoʻliq oilada bola shaxsi shakllanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish hamda mazkur jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan boʻlsa[8], G.Yunusova Oʻzbekiston sharoitida toʻliq va notoʻliq oilalar muhitida ona shaxsi taʼsirida oʻsmir va ilk oʻspirin yoshidagilarning hayotiy qadriyatlarga munosabatlari, istiqbol toʻgʻrisidagi tasavvur va moʻljallarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni rivojlantirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishgan[9].

Oʻzbekistonda ham toʻliq va notoʻliq oilalarning psixologik xususiyatlari, oilaning psixologik tipologiyasi, oilaviy ajrashishlarning farzandlar tarbiyasiga taʼsirining psixologik sabablari, oilaning etno-psixologik xususiyatlari va xotin-qizlarning jamiyatda tutgan oʻrni masalalari bir qator psixologik tadqiqotlarda (Gʻ.Shoumarov 1993, V.Karimova 1994, R.Samarov 2005, 2012, X.Karimov 1994, G.Yadgarova 2004, A.Kadirova 2007) oʻz aksini topgan.

Toʻliq va notoʻliq oilalarda ona tarbiyasi taʼsirida boʻlgan oʻsmirlik va ilk oʻspirinlik yoshidagi oʻgʻil va qizlarning hayotiy qadriyatlarga munosabatlari, ijtimoiy moʻljallari, ijtimoiy tasavvurlari hamda istiqbol toʻgʻrisidagi tasavvurlari va ularning oilaviy hayotga tayyorligi masalalarining turli jihatlarini oʻrganish yuzasidan salmoqli tajribalar toʻplangan. Xorijiy mamlakatlarda bevosita toʻliq va notoʻliq oiladagi shaxslararo munosabatlarning ijobiy va salbiy jihatlari ayrim tadqiqotlarning predmeti sifatida oʻrganilgan, jumladan: barqaror va disfunksional oilalarni oʻrganish anʼanalari (V.Satir, R.Xill, A.E. Lichko, E.G. Eydemiller, V.Yustiskiy, A.Y. Varga, V.V. Stolin, O.A. Karabanova, N.N. Posisoyev, I.A. Mojarovskaya), oilani insonning maʼnaviy kamolotiga, ruhiy barqarorligiga taʼsiri (V.N. Drujinin, T.V. Gushina, V.A. Ivanchenko), oila psixologik himoya maskani ekani (R.M. Granovskaya, E.I. Kirshbaum, A.I. Yeremyeva, L.R. Grebennikov, Y.S. Romanova, Y.V. Chumakova, V.G. Kamenskaya, D.Parker va N.Endler), oila – kichik ijtimoiy guruh va notoʻliq oila bundan mustasno emasligi (E.B.Agafonova, N.S.Fontalova, M.Y.Kazaryan, B.B.Nusxayeva, S.A.Trofimova) va boshqalar ilmiy ishlarda tadqiq qilingan. Ammo notoʻliq oila farzandlarining ijtimoiylashuvida gender xususiyatlari oʻrganilmagan.

**Yakuniy qism.** Notoʻliq oila farzandlarining ijtimoiylashuvida gender xususiyatlari toʻliq oʻrganilmagan boʻlib, biz oʻz oldimizga ota tarbiyasida oʻsgan yoki yolgʻiz ona tomonidan tarbiyalangan bolaning ijtimoiylashuvidagi gender xususiyatlarni oʻrganishni maqsad qilib olamiz. Bunda quyidagi jihatlarga eʻtibor qaratish zarur:

– notoʻliq oila farzandlarining ijtimoiylashuvida gender xususiyatlari ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida;

– notoʻliq oila farzandlarining ijtimoiylashuvida oila va maktab hamkorligi;

– notoʻliq oila farzandlarining ijtimoiylashuvida ota yoki onaning oʻrni;

– notoʻliq oila farzandlarining ijtimoiylashuvida gender xususiyatlari pedagogik shart-sharoitlarini oʻrganish asosiy vazifa sifatida qaraladi.

---

[6] Нусхаева Б.Б. Неполная семья как институт социализатсии детей. Автореф дисс... кандидата социологических наук (PhD). – Москва. 2007. – С. 20. https://www.dissercat.com/content/nepolnaya-semya-kak-institut-sotsializatsii-detei-na-primere-respubliki-kalmykiya/read

[7] Дементьева И.Ф. // СоцИС. 2001. №11. – С. 108–113. https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-nepolnoy-semi-i-ee-tipy

[8] Шаумарова З. Нотўлиқ оилада бола шахси шаклланишининг ижтимоий-педагогик хусусиятлари: пед. ф.ф.док. (PhD) ... дисс. автореф. – Т.: 2021. – 164.

[9] Юнусова Г. Тўлиқ ва нотўлиқ оилалардаги она шахсининг фарзанд ижтимоий тасаввурларига таъсири: пед. ф.ф.д. (PhD) ... дисс. автореф. – Т.: 2018. – 164.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сон Фармони // https://lex.uz/ru/docs/5570968
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 августдаги “Етим болалар ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни тарбиялашнинг тубдан янгиланган тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5215-сон карори // https://lex.uz/docs/5570968
3. Нафикова Г.З. Понятие неполной семьи и ее типы // Вестник Башкирского университета. 2009. Т. 14. №1 // https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-nepolnoy-semi-i-ee-tipy/viewer
4. Нусхаева Б.Б. Неполная семья как институт социализатсии детей. Автореф. дисс... канд. социол. наук (PhD). – Москва. 2007. – С. 20. // https://www.dissercat.com/content/nepolnaya-semya-kak-institut-sotsializatsii-detei-na-primere-respubliki-kalmykiya/read
5. Дементьева И.Ф. // СоцИС. 2001. №11. // https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-nepolnoy-semi-i-ee-tipy
6. Шаумарова З. Нотўлиқ оилада бола шахси шаклланишининг ижтимоий-педагогик хусусиятлари: пед. фан. фалс. докт (PhD). ...дисс. автореф. – Тошкент, 2021.
7. Юнусова Г. Тўлиқ ва нотўлиқ оилалардаги она шахсининг фарзанд ижтимоий тасаввурларига таъсири: пед. фан. фалс. докт (PhD). ...дисс. автореф. – Тошкент, 2018.
8. Акрамова Ф.А., Билолова З.Б., Жовлиев И.С. Оила энциклопедияси. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. // https://e-library.sammu.uz/uz/view-pdf/ar-cCYtX2lhQFzPts7phjniwsAMIHmGEd_R3GI8XOyOslz-73GWllJYhyUArXwCk

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии*
*Society, Gender and Family in Central Asia*

x a l q a r o   i l m i y   j u r n a l i

*международный научный журнал*

*international academic journal*

**2024/1 (10)**

**DOI: 26739/2118-9998**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**MUASSIS:**

"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o'rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas'ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O'., Razzakova N., Sobirova E., Jabborov U.**
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e'tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*
*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*

1940

Nashriyot ro'yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.
"Times New Roman" garniturasi. Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
Nashriyot bosma tabog'i 7,2.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
M.Ismoiliy ko'chasi 1-G uy.